



Xalq so'zi

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 8-yanvar, № 4 (8899)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



VATANNI ULUG'LASH SAN'ATI



Sarhisob



Keyingi yillarda yangi O'zbekistonda sport siyosat darajasiga ko'tarildi. O'tgan yillarda Prezidentimizning sportga doir 10 dan ortiq Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 100 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlari qabul qilindi. O'zbek futboliga har qachongidan e'tibor yuqori bo'ldi. Ayniqsa, bolalar futboli ancha rivojlandi.

2024-yili ilk bora futbol bo'yicha olimpiya terma jamoamiz Fransiyaning Parij shahrida

bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida Vatanimiz sha'nini munosib himoya qildi. Olimpiya o'yinlarida 206 ta mamlakat orasida ishtirok etgan atletamiz 19 ta sport turi bo'yicha 90 nafar sportchi bilan qatnashdi. Musobaqani O'zbekiston sport delegatsiyasi 5 ta sport turidan 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza bilan umumjamoa hisobida 13-o'rinda yakunladi. Bitta Olimpiadada sakkizta oltin medalni qo'lg'a

kiritgan yurtimiz sport jamoasi Osiyo qit'asida 4-o'rinni, turkiy va islam mamlakatlari hamda MDHga a'zo davlatlar o'rtasida 1-o'rinni egalladi.

Olimpiadada o'zbek futbolchilarini qardosh xalqlar ham kuzatib bordi. Har bir futbolchiga astoydil ishqibozlik qilgan muxlislarning hayajonli hissiyorlarini aytmaysizmi?

►4



Oliy Majlis Senatida

ISHONCHLI HIMOYA KAFOLATLARI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi majlisida bir qator qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Unda senatorlar, mahalliy Kangashlar doimiy komissiyalari raislari, Yoshlar parlamenti hamda qo'mita huzuridagi eksperatlari guruhi a'zolari, qonun tashabbuskorlari, mutasaddi vazirlik va idoralor hamda ommayiv axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari shaxsnинг huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama etildi.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sud-tergov amaliyotida insонning huquq va erkinliklari himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan ilg'or va samarali mechanizmlar yo'lg'a qo'yilmoqda. Mazkur qonun bilan jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan

shaxsnинг erkinlik va shaxsiy daxslislikka oid konstitutsiyaviy huquqlarini sud tomonidan ishonchli ta'minlash maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudurlarda tergov sudyusi lavozimi joriy qilinmoqda.

Tergov sudylari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritish bosqichida protsessual qarorlarga sanksiya berish va ma'muriy huquqbuzularlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish masalalarini qonunchilikda belgilash uchun o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan vazifalarini bajarish asoslari hamda tartibini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Muhokama davomida senatorlar qonunning qabul qilinishi tergov faoliyatida shaxsnинг huquq va erkinliklari ishonchli himoyalash kafolatlarini yanada kuchaytirishga yo'lg'i ochishini ta'kidladi.

►2

►2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DEPUTATLAR KORPUSINING TASHABBUSKORLIGI VA FAOLLIGI – USTUVOR MAQSAD

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unga raislik qiluvchi quiyi palata Spikeri o'rinosari Rahim Hakimov mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim jarayonlarga to'xtalib o'tdi. Prezidentimizning Yangi yil bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy, ijtimoiy faoliogi alohida e'tirof etilganini ta'kidladi. Shuningdek, davlatimiz rahbari ishtirokida shu yil

3-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisdida mamlakatimizning Davlat byudjetiga oid masala ko'rib chiqilgani, deputatlar byudjet ijsorisini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratishi kerakligi qayd etildi.

Mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalarining o'tgan yil 18 – 20-noyabr kunlari bo'lib o'tgan majlislardagi nutqlarida belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha Qonunchilik palatasining Harakatlar dasturi tasdiqlangani, quiyi palata bu yilgi faoliyatida Prezidentimiz tashabbuslarini binchiri galdagi vazifalar siyatida belgilab, ularni ogishmay amalga oshirishi lozimligi aytib o'tildi. Ayni chog'da bu deputatlar korpusidan katta mas'uliyat bilan ishlash, saylovchilar manfaatlarini ta'minlash

borasida yanada tashabbuskor bo'lish talab etilishi lozimligiga e'tibor qaratildi.

Majlida kun taribibidan o'rın olgan o'nga yaqin, jumladan, yer uchastkalaridan foydalanan tartibini yanada takomillashtirish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijo etish tizimini mukammallashtirish, elektron sigaretalar muomalasini taqilash, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklарini sug'urta qilishga qaratilgan qonun loyihami atroficha ko'rib chiqildi.

►2

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – muvaffaqiyat garovi

Prezidentimiz Shakhat Mirziyoyev huzurida 2024-yil 23-dekabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'shimcha imkoniyatlari ishga solish, investitsiyani ko'paytirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha 2025-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda yana istiqboldagi rejalr belgilab olindi. Unda ta'kidlanganidek, 2024-yil Qoraqalpog'iston uchun barakali keldi. Yangi sanoat korxonalar, turizm maskanlari, energetika quvvatlari, IT-park ishga tushirildi. Qoraqalpog'istonni Xoram bilan bog'laydigan 423 metri yangi avtomobil va temir yo'k'oprigi oshidi. Bu orqali yuk va yo'lovchi tashish masofasi 180 kilometr qisqardi. 323 min. dollar hisobiga yangitdan qurilgan Qo'ng'irot – Beynov avtomobil yo'lining 240 kilometrlik qismi foydalanshga topshirildi. Shuning o'zi tranzit va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 min. dollarga oshishiga zamin yaratadi. Yaqinda 196 kilometrik Miskin – Nukus temir yo'lini elektralashtirish ishlari ham boshlanadi.

►3

QUYOSHGA YUZ TUTIB, SHAMOLNI IZMIGA SOLGAN YURT

Muqobil energiya



6-7 foiz ortishiga olib kelmoqda. Bu boroda uglevodorodli energiya resurslari o'rnini muqobil manbalar bilan qoplash muammoning yagona yechimidir. Zotan, yurtimiz osmonida quyosh to'rt fasilda charaqlab, bepoyon kengliklarimizda shamol bezavol esarkan, bundan samarali foydalananishni yo'lg'a qo'yish hayat-mamot masalasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning 90 foizdan oshiqrog'ini quyosh, shamol va kichik gidroelektr quvvatlari yordamida qanoatlantrish imkoniyati mavjud. Shu bois "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 51-maqsadida "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'satikchilarini keskin oshirishga oid vazifalar belgilab berilgan. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavatiga, jami iste'moldagi ulushini esa 54 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Aslida qayta tiklanadigan energiyani jadal rivojlantirishni ta'minlash, energiya ishlash chiqarish manbalarini diversifikatsiyalash, shuningdek, elektr energiya tarmog'iga

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jaib etishga anchha ilgariroq kirishilgan. Davlatimiz rahbari o'z faoliyatining dastlabki kunlaridayoq muqobil energiya manbalaridan foydalansh ko'lamini kengaytirish vazifalarini ustuvor 2018-yilning 15 – 17-may kunlari AQShga tashrifni doirasida Jahan banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliyaviy korporatsiya bilan kelishuvlarga erishgan edi. Shu asosda Navoiy viloyatida quruvati 100 mVtga teng birinchi quyosh fotoelektr stansiyasi buning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavatiga, jami iste'moldagi ulushini esa 54 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Aslida qayta tiklanadigan energiyani jadal rivojlantirishni ta'minlash, energiya ishlash chiqarish manbalarini diversifikatsiyalash, shuningdek, elektr energiya tarmog'iga

bo'lgan 24 ta loyiha, jumladan 3,7 mlrd. dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirilib, navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berildi. Ushbu yangi loyihamalar tufayli yaqin isticbolda qo'shimcha 9,5 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarishga erishilib, 2,5 mlrd. kubometr tabiy gaz tejaladi, 4,6 mln. tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi. Boshqacha aytganda, mamlakatimizdagagi xonardonlardan qarib qirg' foizining toza elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlanishiga erishish orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qarib 4 mld. dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish imkoniga ega bo'lambiz. Ya'ni mamlakatimizda joriy yilda jami 84 mld. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu – 2016-yildagiga nisbatan 25 mld. kilovatt-soat yoki 1,5 barobar ko'p demak.

O'zbekiston – kelajagi buguk davlat

Ko'z o'ngimizdagagi o'zgarishlar

QORAQALPOG'ISTON – IMKONIYATLAR O'LKASI

Mamlakatimizda Prezidentimiz boshchiligidagi olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida bugun Qoraqalpog'istonda ham ijtimoiy-iqtisodiy holat tubdan o'zgarmoqda. Respublika poytaxti – Nukus shahridan boshlar, tumanlar markazlari, shahar va qishloqlar, hatto chekka ovullargacha har tomonlama o'zgarib, rivojanib borayotganligi buning yaqqlar tasdig'i. Zamonaliv korxonalar, ta'lim, tibbiyat, madaniyat va sport obyektlari uning husniga husn, ko'rkiga ko'rk qo'shmaqda.

Bugungi kunda yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etish yo'lda yuksak maqsad va vazifalar belgilab olingan, g'oyat ulkan rejalar tuzilgan. Bu vazifalar Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlarida yanada aniqlashtirilgan.

Orol muammosining qilona yechimi

Davlatimiz rahbari o'z lavozimiga kirishgan kundan boshlab, Qoraqalpog'istoniga alohida e'tibor qaratdi. Qoraqalpog'istonda o'gir yuziyat yuzaga kelganligini eng birinchi sababi Orol muammosi ekanligini ta'kidlab, uni hal etishning yangi strategiyasini taklif qildi. Shakhat Mirziyoyev Orol fojasisini bartaraf etish uchun muammoning faqat oqibati, ya'ni ta'sirigagina yechim topmay, uning sababi bilan kurashish yo'lini ko'rsatdi. Orloning qolgan maydonini o'simliklar bilan qoplab, tuzli, zaharli to'zonnii to'xtatib, uning o'rniqiga yashil qoplamalarni yaratish zarurligini ilmiy aslosib berdi. Bu tashabbus dunyo hamjamiyatini tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

So'nggi yetti yilda Orol dengizingin qurigan tubida 1,9 mln. gektarda o'mronzorlar barpo etildi. Ekotizimni yaxshilash, sho'rланган, suvsiz muhitda yangi nav va urug'larni yaratish uchun Orolbo'y qalqaro innovatsiya markaziga asos solindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Orol muammosiga qarshi kurashda butun dunyo davlatlarining hamjihatagini ta'minlaydigan BMT shafeligidagi Orlonbo'yini mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sherkilik asosida trast fondning tuzilishi erishildi. Xalqning yo'qolib borayotgan umidlari tiklandi, kelajakka ishlonchi kuchaydi.

Shunday qilib Prezidentimiz xalqimiz tarixida yangi sahifa oshdi. Hozir unga oy sayin, yil sayin Qoraqalpog'istonda amalga oshirilayotgan buyuk bonyodkorlik ishlari yozilmoqda. Qoraqalpoq diyorini mamlakatimizning namunali o'kasiga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar davom etmoqda.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – muvaffaqiyat garovi

Prezidentimiz Shakhat Mirziyoyev huzurida 2024-yil 23-dekabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'shimcha imkoniyatlari ishga solish, investitsiyani ko'paytirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha 2025-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda yana istiqboldagi rejalr belgilab olindi. Unda ta'kidlanganidek, 2024-yil Qoraqalpog'iston uchun barakali keldi. Yangi sanoat korxonalar, turizm maskanlari, energetika quvvatlari, IT-park ishga tushirildi. Qoraqalpog'istonni Xoram bilan bog'laydigan 423 metri yangi avtomobil va temir yo'k'oprigi oshidi. Bu orqali yuk va yo'lovchi tashish masofasi 180 kilometr qisqardi. 323 min. dollar hisobiga yangitdan qurilgan Qo'ng'irot – Beynov avtomobil yo'lining 240 kilometrlik qismi foydalanshga topshirildi. Shuning o'zi tranzit va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 min. dollarga oshishiga zamin yaratadi. Yaqinda 196 kilometrik Miskin – Nukus temir yo'lini elektralashtirish ishlari ham boshlanadi.

►3



QORAQALPOG'ISTON – IMKONIYATLAR O'LKASI



1 Hududga sanoat, tadbirkorlik va infratuzilma sohalarida 50 dan ortiq imtyoz va yengilklilar berilgan. Xususan, investitsiya loyihalar uchun to'g'ridan-to'g'ri yer ajratish huquqi faqat Qoraqalpog'istonda joriy qilingan. Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq mulototi bu yil Nukusda o'tkazilib, hududning salohiyati ko'rsatib berildi. Tasiqlangan rejadan tashqari, tadbirkorlar ko'targan 700 dan ortiq masala, tashabbus va yangi loyihalar qo'llab-quvvatlanadi, 8 trln. so'm qo'shimcha mablag' ajratildi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar rivoji, tadbirkorlik infratuzilmasi uchun yana 18 trln. so'm yo'naltirildi. Eng muhim, mahallagi kichik loyihamdor tortib, megaloyihagacha qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim yo'iga qo'yildi.

Ilgari kredit olish, bozor topish, infratuzilma bilan bog'lig muammolar, timsiz "tekshir-tekshir"lar sababli 60 foiz tadbirkorlar faoliyatini binchil yilning o'zidayoq to'xtab qolar edi. Bugungi kuniga kelib uch yilden ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etib, ilk bor 300 mingtaga yetdi. Yana 100 mingdan ziyod shunday yakkta tartibdagi tadbirkorlar bor. Soliq, bank, moliya, butun iqtisodiyot kompleksi mahallabay bilan mijozbag' ishlayotgani natijasida oldin zarar bilan faoliyat yuritayotgan 16 ming korxona yarim yilda 6,5 trln. so'm foydaga chiqdi. Xususiy sektorda 5 mln. so'mdan ko'p maosh oladigan ishchilar 1 mln. dan oshdi. Shundan 370 mingi 10 mln. so'mdan ziyod oylik ish haqi oladi.

O'tgan davrda Qoraqalpog'istonda 1,4 mld. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya evaziga 150 ta loyiha ishga tushirildi. Tadbirkorlar 12 mingdan 25 mingga, tijorat maydonlari 1,5 mln. kvadrat metraga ko'payib, 212 ming odam doimiy ishga joylashdi. Qoraqalpog'istonda biznes va investitsiya uchun qulay muhit, daromad topish uchun yangi-yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Chet ilik investor va mutaxassislar ham u yerda daromad topish uchun katta imkoniyatlar paydo bo'lganini aytaydi.

Qoraqalpog'istonda chet el kapitali bilan tashkil etilgan korxonalar soni ham ko'payib

borayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. 2017-yilda 73 ta xorijiy va qo'shma korxona bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 175 taga yetdi. Xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymini 9,5 mld. dollarlik 124 ta loyiha shakllantirilgan. Loyihalarga Xitoy, Saudiya Arabiston, Germaniya, Rossiya, Ispaniya kabi mammakatlardan kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Ular energetika, issiqlik ta'minot, tog-kon va kimyo sanoati, qurilish materiallari, xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlarni qramrab olgan. Masalan, Saudiya Arabiston bilan hamkorlikda Nukus shahrida markazlashgan issiqlik ta'minot tizimini yaxshilash, Ispaniya investitsiyasi ishtirokida Qoraqalpog'istonda qayosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, germaniyalik investorlar tomonidan Nukus tumanida misni qayta ishishla yuva kabellar ishlab chiqarish loyihalar rejalashirilgan.

Rivojanishning yangi drayverlari

Prezidentimiz huzurida tashkil etilgan yig'ilishda mavjud iqtisodiy salohiyat kompleks tahsil qilinib, qishloq xo'jaligi, turizm va xizmatlar sohasida 2,5 mld. dollarlik imkoniyatlar aniqlanganı xususida ham so'z bordi. Hozir 87 ming gektar paxta maydonlaridan o'rtaча 28 sentner



hosil olinayapti, 10 ta tumanda rentabellik past. Ekspertlar bunday kamoshilari paxta maydonlarini qisqartirib, o'miga ozuqabop ekinlar va kunjut ekishni tavsiva etmoqda. Ozuqabop ekinlar hisobiga 6,5 trln. so'mlik go'sht va sut yetishtirish, kunjutdan eksportni 500 mln. dollarga ko'paytirish mumkinligi hisob-kitob qilingan. Bu orgali ancha suv ham iqtisod bo'ladi. Shuningdek,

Mo'ynoqning o'zida kamida 1 mld. dollarlik turizm loyihalari uchun salohiyat bor. Yaxlit majmumalarini ishga tushirib, 1 mln. sayyo'ha xizmat ko'rsatish va 5 ming aholini daromadli qilish mumkin. Etno va ekoturizm bo'yicha ham imkoniyatlar to'la ishga solinmay turibdi. I. Saviskiy nomidagi davlat san'at muzeysi, "Chilipi" yodgorligi, Ayoz qal'a, Tuproq qal'a kabi 200 dan ziyod diqqatga sazovor joylar, 10 dan ortiq xalq o'ynilar bor. Bu ham 3 mln. sayyo'ha jaib etib, bir necha kun aylantirish uchun dastur. Shunday imkoniyatlar bo'lgan respublikani rivojlanishidagi mutasaddi rahbarlardan alohida tashhabuskorlik, mas'uliyat talab qilinadi. Asosiyisi, tadbirkorlarga hujud salohiyatini ko'rsatib, loyiha taklif etish, biznesga ko'makchi bo'lish kerak. Ana shunda yangi-yangi ish o'rinnari, qo'shilgan qiymat va eksport bo'ladi, odamlarning daromadi ko'payadi.

Qishloq xo'jaligida ham samaradorlikni oshirish zarur. Sug'oriladigan yerlarda jami 3 ming gektar sanoatlashgan bog' va tokzor barpo qilinadi. 31 ming gektarga kunjut, 22 ming gektarga mosh ekilib, eksportga yo'naltiriladi. 30 ming gektar yerga qizilmiya ekish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqiladi. Bular Qoraqalpog'istondagi imkoniyatlarning ayrimlari, xolos. Ularni

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishish bo'yicha loyihalar tayyorlab, hokimlarga yetkazadi. Yangi turizm yo'nishlari oshish va ularga infratuzilma olib borish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Yig'ilishda Qoraqalpog'istondagi Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi shu kabi imkoniyatlarini ishga solish, investitsiya va ish o'rinnarini ko'paytirish bo'yicha rejalarni taqdimot qildi. Davlatimiz rahbari ularning tarkibiga e'tibor qaratdi. Xususan, joriy yil uchun rejalangan 3,1 mln. dollar investitsiyangin bor-yo'gi 500 mln. dollarini hujudiy loyihalarga e'tibor qiladi. Shu bois tumanlardagi hamma imkoniyatlarni safarbar etib, bu nisbatni ko'paytirish kerak. Buning uchun qo'shimcha 1 mln. dollarlik hujudiy loyihalar shakllantirilib, 120 ta korxona ishga tushiriladi. Eksport miqdori 500 mln. dollarga yetkaziladi. 85 ta yirik korxona to'liq quvvatga olib chiqiladi. Shuningdek, yangi korxonalar, savdo va servis maydonlari ochilib, 150 ming odamning bandligi ta'minlanadi. Natijada ishsizlik darajasi 5,4 foizga tushadi. 20 ming ehtiyojmand oliga daromad manbai yaratiladi, kambag'alikni 7,6 foizga kamaytirish choralar ko'rildi.

"Yashil" energiya – taraqqiyot garovi

Hozirgi kunda yurtimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Qoraqalpog'istonda ham iqtisodiyat jadallik bilan o'sib boryapti. Bu sur'atni saqlab, yangi marralar sari harakatlanish uchun energiya quvvatlarini kerak. Shuning uchun bugungi kunda Qoraqalpog'istonda 1 gigavattli shamol elektr stansiyasi qurilyapti. Jami 9,3 gigavattli shunday stansiyalar qurish bo'yicha loyihamdor boshshanyapti. Bu yiliga 33 mln. kilovatt-soat elektr energiyasi degani.

Nufuzli tadqiqot institutlari hisob-kitobiga ko'ra, Qoraqalpog'istonda 680 gigavatt quyosh, 120 gigavatt shamol energiyasi salohiyati bor. 2030-yilga qadar huddudda 11 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya hisobiga, jami 10,3 gigavatt quvvatga ega 10 ta yirik shamol elektr stansiyasi qurilishi rejashirilgan.

Bu loyihamdor to'liq ishga tushishi hisobiga yiliga 35 mln. kVt-soat "yashil" energiya olindasi. Quvvat uzatishida barqorolikni ta'minlash uchun Qo'ng'iroq, Beruniy va Qoraqalpog'istonda jami 400 megavattli 3 ta elektr energiyasini saqlash tizimi barpo etiladi. 2024-yilning 19-avgust kuni ushbu loyihamdorning bir nechta bo'yicha qurilish ishchlari boshlandi. Birinchi Xitoyning "Sany Renewable" kompaniyasi tomonidan "Sany Renewable" kompaniyasi tomonidan Qo'ng'iroq tumanida quriladigan qiymati 1 mln. 200 mln. dollarlik, 1 gigavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi. Ikkinchisi Saudiya



Qo'ng'iroq, To'rtko'l, Chimboy tumanlari shifoxonalarini kompyuter tomograf, ultravuvsh diagnostikasi uskunasi, raqamli rentgen, Nukus shoshilinch tibbiyot markazi angiograf, Chimboy, Beruniy, Qo'ng'iroq tumanlari perinalat markazlari narkoz apparati va boshqalar bilan jihatolandi. So'ng'i yillarda birlamchi tizimda 123 ta poliklinika tashkil etilgan bo'sla-da, 200 ga yaqn mahallalar aholisi 8 – 15 kilometr uzoqlikdagi tibbiyot maskanligi borishga majbur bo'layotgandi. Amudaryo, Qonlik'l, Qoraqalpog'istondagi Kegeyl, Qo'ng'iroq, To'rtko'l, Nukus, Bo'zatov, Ellikqal'a, Shumanay tumanlari yana 11 ta birlamchi tibbiyot muassasasi hamda chekka huddudlarda 57 ta tibbiy punkt tashkil etilgani odamlar og'irini yengil, uzog'ini yaqn qilyapti.

E'tiborli, yaqinda Prezidentimiz "Qoraqalpog'istondagi ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasini tashkil etishga oid choradabirler to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Una ko'ra, yurdil shaxs maqomiga ega bo'igan Qoraqalpog'istondagi ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasi, uning tarkibida ilmiy-tadqiqot laboratoriysi, o'quv-simulyatsion markaz va mehnomonxa ishga tushiriladi. Nukus shahrida joylashgancha davlat va nodavlat davolash-profilaktika muassasalarini akademiyaning klinik bazasi hisoblanadi. Akademiyasi tibbiyot kadrлarini qayta tayorlash va malakasini oshirish, tashxislash va davolashning yuqori texnologiyali innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish, telemaditsina texnologiyalaridan keng foydalish uchun sharoitlar yaratish bilan shug'ullanadi. 2025/2026 o'quv yilidagi bu yerda klinik ordinaturnada yuqori malakalari tibbiyot kadrлarini tayorlash yo'lgan qo'yildi. 2025-yil 1-oktabrdan akademiya to'liq faoliyat yuritadi. Bu ham inson qadri yo'lda olib borilayotgan islohotlarning bir qismi.

Inson manfaatlari – himoya

Davlatimiz rahbarining tegishli Farmon va qarorlari asosida oshirilisa, jumladan, yoshlarga, tadbirkorlarga katta imkoniyatlar yaratildi. Mahallalarda keng ko'lumi qurilish-ta'minlash va obodonlashtirish ishchlari olib borildi. Jumladan, o'tgan yilda 452 ta mahallaning har biriga 500 mln. so'mdan, jami 226 mln. so'm qo'shimcha mablag' ajratildi, kadastri bo'lmaqan 43 mingdan ziyod turorjularning kadastr hujjatlarini tayorlandi. Aholi salomatligi birlamchi vazifa. Tibbiyot sohasiga sarflanayotgan xarajatlar 2016-yildagi nisbatan 4,5 baravar osghan.

Mamlakatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilayotgan Qoraqalpog'istondagi Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi dasturlari hujudni asrlar davomidagi oddiy agrar o'lkanidan zamonaviy ishlab chiqarishiga e'timoiy-iqtisodiy tibbiyot tibbiyot akademiyasi, uning tarkibida ilmiy-tadqiqot laboratoriysi, o'quv-simulyatsion markaz va mehnomonxa ishga tushiriladi. Nukus shahrida joylashgancha davlat va nodavlat davolash-profilaktika muassasalarini akademiyaning klinik bazasi hisoblanadi. Akademiyasi tibbiyot kadrлarini qayta tayorlash va malakasini oshirish, tashxislash va davolashning yuqori texnologiyali innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish, telemaditsina texnologiyalaridan keng foydalish uchun sharoitlar yaratish bilan shug'ullanadi. 2025/2026 o'quv yilidagi bu yerda klinik ordinaturnada yuqori malakalari tibbiyot kadrлarini tayorlash yo'lgan qo'yildi. Ahmed REYMOV, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti rektori, akademik, Qoraqalpog'istondagi Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati.

2024-yil O'zbekiston uchun jahon hamjamiyati bilan aloqalarni yo'lg'a qo'yishda muvaffaqiyatlar davri bo'ldi

Jahonlar Nuru universitetining Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi (Hindiston) professori Sanjay Kumar Pandey O'zbekiston hayotida 2024-yilda amalga oshirilgan yangilanish jarayoni natijalari va erishilgan yuksak marralar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.



Dunyo nigohlisi

– 2024-yil jahon va ayniqsa, O'zbekiston uchun juda muhim yil bo'ldi. O'zbekiston so'ng'i yillarda ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va tashqi siyosatda katta yutuqlarga erishdi.

Mamlakat pragmatik va ko'p vektorli tashqi siyosat yuritmoqda. Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlarga ustuvor ahamiyat berilgan holda dunyoning barcha mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlamoqda. Ta'kidlash joizki, "birinchi navbatda qo'shinchilik" g'oyasi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyili bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sammittari o'tkazilmoga. So'ng'i 7-8 yil davomida mintaqaga davlatlari o'tasidagi hamkorlik misli ko'rilmagan yuksal darajaga ko'tarildi. Mintaqadagi barcha davlatlari bilan strategik sherhiklik yangi formatiga erishildi. Ular bilan tovar ayirboshlash hajmi sezilarini darajada.

O'zaro bog'liglik juda muhim masala. Xitoydan O'zbekistonga yangi temir yo'l liniyasini qurish loyihasi amalga oshirila boshlandi.

O'tgan yil may oyida Rossiya Prezidenti O'zbekistonga tashrif buyurdi va ikki davlat o'tasidagi strategik sherhiklik yanada yuqori bosqichga ko'tarildi. Xitoy bilan barcha sharoitda har tomonlama strategik sherhiklik darajasiga erishildi. Ma'lumki, mazkur davlat O'zbekistonning eng yirik savdo va sarmoyaviy hamkor hisoblanadi.

O'zbekiston Hindiston bilan juda qadimiy hamda chuxur tarixi, madaniy va gunmanitar aloqalarga ega. So'ng'i 30 yilden ortiq vaqt mobaynida barcha sohadagi o'zaro hamkorlik yuksak bosqichga ko'tarildi. 2012-yilda tomonlar strategik hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolagan edi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'ng'i besh yil ichida ikki marta Hindistonga tashrif buyurdi. 2024-yil Qozon shahrida BRIKS sammiti doirasida Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi bilan sermashul

muloqot qildi. E'tiborli jihat, O'zbekiston Hindiston Bosh vaziri yuksak darajada uchrashtuv o'tkazgan Markaziy Osiyoning yagona davlati edi.

2024-yili Hindiston molika vaziri Nirmala Sitharaman O'zbekistonga tashrif buyurdi. U davlat rahbari tomonidan qabul qilindi va juda samarali muloqot o'tkazildi. Tashrif doirasida Hindiston va O'zbekiston o'tasidagi ikki tomonlama sarmoyaviy bitim imzolandi. Ushbu hujjat davlatlari o'tasidagi shaffot va o'zaro manfaatlari sarmoyaviy muhitni ta'minlashga erishdi.

Bugun O'zbekistonda Hindistondagi o'tta universitetning kampuslari oshirilgan. O'zaro manfaatlari ikki tomonlama hamkorlikning istiqbollari juda oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiy davlatlari tashkiloti, Islam hamkorlik tashkiloti va bosqicha yirik xalqaro boshlashmalar bilan munosabatlari jadal rivojlanishiga e'tibor qaratmoqchiman. Bu tashkilotlarga a'zo davlatlar bilan savdo aloqalari sezilarini darajada oshmoqda.

Umuman, 2024-yil O'zbekiston uchun ham ichki voqealar, ham tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy sohadagi ulkan muvaffaqiyatlar olib keldi.

O'zbekiston rahbariyati va xalqini kirib kelgan Yangi yil bilan tabrikayman. 2025-yil yanada salmoqli yutuqlar, taraqqiyot va muvaffaqiyatlar olib kelsin!

"Dunyo" AA.
Dehli

QUYOSHGA YUZ TUTIB, SHAMOLNI IZMIGA SOLGAN YURT

1 E'tiborli, ushbu loyihamdorning barchasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga qurilmadi. Bu esa yuqorida ta'kidlanganidek, eskrigan energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarini modernizatsiyalash jarayonining tezlashishiga hamda ushbu yo'nalishga ajratilishi lozim bo'lgan mablag'larni bosqicha sarmador iqtisodiy-ijtimoiy loyihamdorla yo'naltirishga imkonini bermoqda.

Navoiy viloyatining Tomdi tumanida qurilgan "Tomdi shamol stansiyasi" shu kabi istiqbollari loyihamdorning barchasi to'g'risida"gi qarori asosida Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda bonyod etilgan ushbu loyihamdorning qurilishi boshlandi. Tashrifda qurilganda qurilish ishchlari boshlandi. Xitoy Xalq Respublikasining hamda mahalliy kompaniyalarining muhandis energetiklari tomonidan amalga oshirildi.

</div

VATANNI ULUG'LASH SAN'ATI



1 Sport millatlar o'ttasida do'stona aloqlarni tiklайди. Boks bo'yicha o'zbek murabbiysi Akmal Hasanov qirg'izistonli bokshchi Munarbek Seyitbek o'g'liga yordam berib,unga musobaqaning finaligacha borishida ko'maklashgani xalqimizning bag'rikengligini butun dunyoga namoyish etdi. Olimpiada o'ynilarini championlari, mahorati futbolchilardan ta'sirlanib, mahallalarda, ko'p qavatlari uylar atrofidagi "Salomatlik yo'laklari", futbol maydonchalarida olibayli sayrga chiqqan, farzandlari, nabiralarini futbol seksiyalariga yetaklab borayotgan kishilar ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbinari to'g'risida"gi Farmoniga binoan 2024-yilda yurtimizda 23 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi qurilishi boshlandi. Shuningdek, yetari sport inshootlariga ega yana 68 ta bolalar va o'smirlar sport maktabining filiallari tashkili etilmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent shahrining Yashnobod tumanidagi

Suv sport turlari bo'yicha respublika olyi sport mahorati maktabidagi suzish havzasi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Namangan viloyatining Norin tumanidagi sport maktabi hududida umumiyy qiyomi 2 milliard so'nmlik davlat-xususiy sheriqli loyihasi asosida zamonaviy ochiq suzish havzasi o'z faoliyatini boshladi. Bu – maktablarla kelayotgan har bir havaskor qalibda Olimpiadaga chiqish yoki futbol terma jamoasi tarkibiga kirish orzu yashayapti, degani. Ammo yaxshi futbolchini tarbiyalash oson ish emas.

Faqat yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan joriy yilda iqtidorli sportchilarini mahalla musobaqalar orqali topib, ularni terma jamoalarga saralash, yuksak marralarni zabt etishi uchun futbol maydonlari hamda tajribalri murabbiylari bilan ta'minlashga kirishildi. Ayollar futboli, ayollar milliy terma jamoasi ilk bor Olimpiya o'ynilariga saralashning so'nggi bosqichiga qadar yetib bordi hamda dunyo hamjamiyati nazariga tushdi. Opa-singillarimizning sport bilan shug'ullanib, sog'lam turmush tarzini tanlayotgani quvonrali. Sog'lam onadan sog'lam farzand dunyoga keladi. Bu, albatta, professional sportda ham "meva"sin beradi. Birgina, Olimpiya o'ynilarida ayol sportchilardan dzyudochi Diyora Keldiyorova birinchi oltin medalni, Svetlana Osipova taekvondo WT sport turidan birinchi kumush medalni qo'lg'a kiritgani mamlakatimizda ayollar sportida yangi sahifa ochdi. Bularning tarixiy g'alabasi




ko'pchilik yoshlari, ayniqsa, qizlar uchun juda katta motivatsiyadir. Ular ortidan dzyudo, taekvondo, futbolga kelayotgan yosh qizlar sezirlari darajada ko'paydi. Yangi O'zbekiston tarixida Olimpiya o'ynilaridagi ishtirokini boshlagan sportchilarimiz Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, Ulug'bek Rashitov Olimpiya o'ynilarining ikki karra muttaq championi, og'ir atletikachimiz Akbar Jo'rayev esa sovrindoga aylanganiga yilning eng yaxshi yosh futbolchisi sifatida e'tirof etilgan Abbosbek Fayzullayev ham boshqalarga namuna bo'yapti.

Yurtimizda nogironligi bor shaxslar o'ttasida ham sport turlari ommalashmoqda. Taqqoslash uchun:



"Besh tashabbus olimpiadasi"ning ommaviy sport musobaqalarida 13 ta sport turidan 7 – 30 yoshli jami 10,1 million yigit-qiz ishtirok etdi. Nogironligi bo'lgan shaxslarini ommaviy sportdag'i qamrovi o'tgan yildagi 12 mingdan 18 ming nafarga oshirildi. O'zbekistonlik sportchilar qisqa muddatda Yevropa markazidagi Parij shahrida ikkinchi bor o'z iqtidorini, kuch-qadratini va mahoratini butun dunyoga namoyish etdi. Natijada Vatanimizda bayram-bayramga ularin ketdi. Tarixga aylangan "Parij – 2024" Paralimpika o'ynilarida 168 ta mamlakatdan 4,4 ming nafar parasporthchi 22 ta para sport turida bahs obil bordi. Olimpiada o'ynilarida



O'zbekistonimiz farzandlari 26 ta medal bilan 13-o'rinni egalladi. Futbol terma jamoalarini yildan-yilga rivojlanib, natijalar yaxshilanib bormoqda. Ammo oldimizda katta sport bayramlari – "Milan-Kortina – 2026" qishki Olimpiya, "Aichi-Nagoya – 2026" yog'i Osiyo va "Los-Anjeles – 2028" yog'i Olimpiya o'ynilarini turibdi. Yaratib berilgan imkoniyat, sharoitlardan unumli foydalanyan, sportchilarimizga, bizga bildirilgan ishonchni to'liq oqlab, yaxshi natjalarni qo'lg'a kiritishni maqsad qilganimiz.

Ravshan ERMATOV,
O'zbekiston futbol
assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti.

YANGILIKLAR xabarlar TAFSIOTLAR

QQS va foya solig'i stavkalari oshirilmaydi

Davlatimiz rahbarining tegishli Farmoniga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i va foya solig'i stavkalari 2028-yil 1-yanvargacha oshirilmasligi belgilandi.

Xususan, shu yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlarida ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan va belgilangan shartlarga javob beradigan tadbirkorlar uchun foya solig'i va o'zlarining xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 1 foiz etib belgilandi.

Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko'maklashish markazi tashkil qilindi. Ushbu markaz tadbirkorlarga xalqaro moliya instituti, xorijiy moliya muassasalari va boshqa kredit tashkilotlарidan davlat kafolatisiz mablag'lar jaib qilish bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatadi.

Yoshlar uchun ilhom manbai

Markaziy harbiy okrug xizmatchilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar o'tkazmoqda.



Xususan, Jizzax, Samarkand, Kattaqo'rg'on va Navoiy garnizonlariida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlikat tayanchi", "Vatanga xizmat – olyi fazilat" kabi mavzularda uchrashtuvlar hamda vatanparvarlik festivallari yusushtirildi.

Mazkur targ'ibot tadbirlari davomida yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'nan yetuk, jismoniy sog'lam, Vatanga sodiq farzandlarni kamolga yetkazish yuzasidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar haqidagi imkoniyatlar, Qurolli Kuchlari saflarida xizmat qilish va oliy harbiy ta'lim muassasalarida tsahsil olish borasida ma'lumotlar berildi.

Yoshlarni yot g'oyalardan asrab-avaylash va makfuraviy immunitetini oshirishga qaratilgan vatanparvarlik festivallari zamonaviy harbiy texnika va qulor-aslahalar namoyish etilayotir, harbiy orkestr ijosidagi musiqa va qo'shiqlar barchaga ko'tarinkin kayfiyat bag'ishlaysati.

O'quvchilar o'ttasida tafakkur bahsi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashabbusi bilan yoshlarning iqtidori qo'llab-quvvatlash va rag'baltantrish maqsadida umumta'lim maktablar o'quvchilari o'ttasida shaxmat musobaqalari uyuştilmoqda.



Jumladan, poytaxtimizda shaxmat bo'yicha O'zbekiston championati saralash bahslarining Toshkent shahar bosqichi o'tkazildi. Unda 300 nafarga yaqin yigit-qizlar ishtirok etdi.

Qizlar va o'g'il bolalar o'ttasida oltitadan yosh guruhi bo'yicha o'tgan bahslar yakunida besh nafardan g'oliblar saralanih, ular respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lg'a kiritdi.

"Xalq so'zi".



Yosh vatandoshimiz Zinnura Karimova Seul shahrida bo'lib o'tgan 12-milli yikki tildagi notiqlik musobaqasida olyi mukofotini qo'lg'a kiritdi.

Janubiy Koreyaning Kvangju shahridagi "Volgok" boshlang'ich maktabi 4-sinf o'quvchisi bo'lgan Zinnura ushbu muvaffaqiyatga erishish uchun bir qator sinovlardan o'tdi. U dashtab "Volgok" maktabida o'tkazilgan ichki bosqichda oltin medal, keyinchalik Kvangju shahar ta'lim departamenti tomonidan tashkil etilgan hududiy bosqichda kumush medal bilan taqdirlangan. Bu yutuqlar una mamlakat bosqichida qatnashish imkonini yaratdi.

E'TIROF Janubiy Koreyada o'tkazilgan notiqlik tanlovida o'zbek qizi g'alaba qozondi

Tayyorgarlik jarayonida Zinnura har kuni bir necha soat o'zbek va koreys tillarida nutq mashqlari bilan shug'ullanidi. Bu nafaqat uning tillararo bilimlarini oshirdi, balki sahnada ishonch bilan chiqish qilishiga ham yordam berdi. Zinnura o'zi yozgan "Yosudagi maroqli sayohat" mavzuidagi hikoyasini ikki tilda – o'zbek va koreys tillarida so'zlab, hay'at a'zolarining e'tirofiga sazovor bo'di.

Musobaqada turli madaniyatlarga mansub 52 nafar o'quvchi qatnashdi, ular 16 tilda o'z hikoyalarini taqdim etdi. 10 yoshli

Zinnuraning har ikki tildagi ijodiy chiqishi musobaqaning xalqaro ahamiyatini yanada oshirdi.

Qayd etish kerakki, Zinnuraning opasi Laziza Karimovalarning g'alabalarini Kvangju shahri va Chollanam-do muzofoti tarixidagi ilk yirik yutuqlardan biri sifatida qayd etildi. Ular o'zbek va koreys tillaridagi zafarlar bilan nafaqat o'z nomlarini, balki o'zbek madaniyatini ham xalqaro maydonda namoyish qildilar.

O'zbekistonlik opa-singillarning yutuqlari Janubiy Koreyaning ko'plab internet sahfalari va ijtimoiy tarmoqlarida ham keng yoritildi.

"Dunyo" AA.
Seul

birinchi o'zbek qizi sifatida e'tirof etilgan edi.

Zinnura va Laziza Karimovalarning g'alabalarini Kvangju shahri va Chollanam-do muzofoti tarixidagi ilk yirik yutuqlardan biri sifatida qayd etildi. Ular o'zbek va koreys tillaridagi zafarlar bilan nafaqat o'z nomlarini, balki o'zbek madaniyatini ham xalqaro maydonda namoyish qildilar.

O'zbekistonlik opa-singillarning yutuqlari Janubiy Koreyaning ko'plab internet sahfalari va ijtimoiy tarmoqlarida ham keng yoritildi.

"Dunyo" AA.
Seul

Diqqat, tanlov!

EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI HAMDA O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili munosabati bilan ijodkorlar o'ttasida

"Onajonim – tabiat" ijodiy ishlar tanlovini e'lon qiladi.

2025-yil mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar manfaatlarini ko'zlab tabiatni muhofaza etishiga qaratilgan muhim tashabbus bo'ldi.

Bu, o'z navbatida, inson va tabiat o'ttasidagi muvozatnatni saqlash, tabiy resurslardan oqilonha foydalanish va barqaror rivojlanshini ta'minlashda muhim qadamdir. Shuningdek, ijod ahlining ijtimoiy-ma'naviy faoliogi va mas'uliyatini oshirib, yangi badli asarlari yaratishga ruhlantrishi tabiy.

Tanlovg'a yangi O'zbekistonda tabiy resurslardan oqilonha foydalanish, ularni qayta tiklash va inson faoliyatining tabiatga salbyi ta'sirining oldini olish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, erkin va farovon yurtda barkamol avlodni tarbiyalash, xalqimizda ona Vatanni, uning ne'matlarini asrab-avaylash tuy'usini kuchaytirish, ajoddalarimizdan meroz havo, yer va yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosini asrashdek milliy qadriyatlarimizni, ijtimoiy hayotdagi

"El-yurt umidi" jamg'armasining 730 nafar stipendiati xorijning nufuzli universitetlarida ta'lim olmoqda.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-ragam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 12 620 nafosda bosilidi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxdagi.

Gazetamiz haqidagi ma'lumatlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonha 71-259-74-51; kabitiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8786
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilat javobgar.

Gazeta tahririyat komp'uter markazida terilib hamda operator A. Imanulov tomonidan salibalandi.

Gazetaning poligrafik ifadatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosmaxona. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 20.40. Topshirildi — 23.20

1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis
Qonunchilik palatasini Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis
Senati Kengashi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiz qilinmaydi va muallifliq qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilat javobgar.

Gazeta tahririyat komp'uter markazida terilib hamda operator A. Imanulov tomonidan salibalandi.

Gazetaning poligrafik ifadatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islam Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahih Sh. Mashrabboyev.